

## SURXONDARYODA TURIZM ISTIQBOLLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7904283>

**Raxmanova Dilrabo Saydullayevna**

*Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti magistranti*

### **Annotatsiya.**

*Ushbu maqolada turizm, ichki turizm haqida tushuncha, Surxondaryo viloyatidagi madaniy yodgorliklar, vohaning tabiati va bu go`shada turizmni rivojlantirishning imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi.*

### **Kalit so`z.**

*turizm, xalqaro turizm, ichki turizm, gastronomik turizm, konservatsiya, restavratsiya, turoperator, sanitariya-epidemiologik talablar, infratuzulma obyektlar.*

### **АННОТАЦИЯ.**

*В данной статье рассматриваются понятие туризма и местного туризма, памятники культуры в Сурхандарьинской области, природа оазиса, возможности развития туризма в этой местности.*

### **Ключевые слова.**

*туризм, международный туризм, местный туризм, гастрономический туризм, консервация, реставрация, туроператор, санитарно-эпидемиологический талабар, инфратузультма объектлар*

### **Abstract.**

*This article discusses the concept of tourism and domestic tourism, cultural monuments in the Surkhandarya region, the nature of the oasis, and the possibilities of tourism development in this area.*

### **Key words.**

*tourism, international tourism, domestic tourism, gastronomic tourism, conservation, restoration, tour operator, sanitary-epidemiological requirements, infrastructure facilities*

Turizm so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, u aylana bo'ylab harakat qilish - degan ma'noni bildiradi. Keng ma'noda buni kishilarni hayotda harakatda bo'lishlari tushuniladi. Turizm faol dam olish turlaridan biri bo'lib, iqtisodiyotning drayveri desak ham mubolag'a bo'lmaydi.

Turizmning juda ko'p turlari va shakllari mavjud, bular ichki, xalqaro, havaskorlik turizmi, uyushgan turizm, yaqin joyga sayohat, uzoqqa sayohat, bilim

saviyasini kengaytirish maqsadidagi turizm, toqqa chiqish, suv turizmi, avtoturizm, piyoda yuriladigan turizm, sport turizmi va boshqalar.

Ichki turizm O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududidagi sayohatini o'z ichiga oladi. Xalqaro turizmi deganda milliy chegaralarni kesib o'tuvchi turizm tushuniladi.

Markaziy Osiyoning tarixiga nazar solsak, Movarounnahrda ilk sayyohlarning safarlari Amir Temur va Temuriylar davrida faollashgan. Amir Temur fransuz qiroli Karl VI va ingliz qiroli Genrix IV bilan doimiy aloqada bo'lgan. Uning elchisi 1403-yili Parijga kelgan. Ispaniyalik Klavixoning "Buyuk Temurning hayoti va faoliyati" kitobida Movarounnahrda ijtimoiy hayot va sayyoxlarning Temur davlatiga intilishi aks etgan. Tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, XIV asrning 80-90 yillarida Temur davlatining shon-shuhrati Evropa mamlakatlarigacha borib yetadi.

Hozirgi kunda dunyoning juda ko'p mamlakatlarida ommaviy tus olgan, milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri - bu turizmdir. O'zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Yurtimiz tabiati shunchalik go'zalki, u yurib charchamaydigan, ko'rib ko'z to'ymaydigan diyor.

Respublikamizda turizm sohasini rivojlantirish hozirgi kunda eng ustuvor sohalardan biriga aylanib bormoqda. Shu bois turizm ayniqsa xalqaro turizm rivojlanishiga hukumat darajasida alohida e'tibor qaratilib, turizm infratuzilmasini yaxshilash va uning salohiyatini oshirish borasida ko'pgina yengilliklar va qulayliklar yaratilib kelinmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining uchinchi yo'nalishida "... turizm va madaniy meros ob'ektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros ob'ektlaridan samarali foydalanish vazifalari ham belgilangan.<sup>1</sup>

2022 yil 19 sentyabr kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimizning ichki va tashqi turizm salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida so'zlagan nutqida sayyohlarga viza berish yengillashtirilgani, aeroportlarda navbatlar va tekshirishlarga barham berilgani, yashil yo'laklar qilinib, valyuta ayirboshlash bemaol bo'lgani ta'kidlab o'tildi.<sup>2</sup> Shuningdek, turizm korxonalarini uchun ijtimoiy soliq va aylanma soliq stavkalari 1 foiz etib belgilandi, yer solig'i va mol-mulk soliq stavkalari 90 foizga kamaytirildi. Mehmon o'rinlari soni 2017 yilga nisbatan 3 barobar ko'payib, 125 mingtaga yetdi. Mehmonlar elektron ro'yxatdan o'tkaziladigan bo'ldi.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda turizm sohasiga rahbarlikni 1992-yilda 27-iyulda tuzilgan "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi olib boradi. Kompaniyaning asosiy vazifasi turizm infrastrukturasi rivojlantirish, chet el sarmoyasini jalb qilib zamonaviy turistik komplekslarni barpo etish, yangi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqish, xizmatlar doirasini kengaytirishdan iborat.

Turizm sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, shuningdek, turistlar va turistik faoliyat sub'yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan (20-avgust 1999). Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2005-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni (15-aprel 1999) sohani rivojlantirishda muhim omil bo'ldi. O'zbekiston 1993-yilda o'z safiga 120dan ortiq mamlakatni birlashtirgan Jahon turistik tashkiloti (WTO)ga a'zo bo'ldi. Shuningdek, O'zbekiston WTO Yevropa komissiyasi rayosatining ham a'zosidir. Bundan tashqari so'nggi yillarda mamlakatimizning turizm salohiyatini yanada rivojlantirish maqsadida turli sohadagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Surxondaryo viloyatidagi qadimiy madaniy-meros obyektlari, arxitektura va arxeologik yodgorliklar dunyo hamjamiyatida katta qiziqish uyg'otib keladi. Vohamiz "Imom Abu Iso Muhammad at Termiziy", "Al-Hakim at-Termiziy", "Ho'ja Samandar Termiziy" "Xo'jamayxona" majmuasi, "So'fi Olloyor", "Xo'jaipok ota", "Omonxona" hamda "Sulton Saodat" majmualari, "Sangardak sharsharasi" kabilarni o'z ichiga oluvchi ziyorat turizmi yo'nalishida imkoniyatlarini taqdim etadi.

Surxondaryo viloyatining betakror tabiati, go'zal dam olish maskanlari va shifobaxsh suv buloqlari, arxeologik yodgorlik va ziyorat joylari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga tadbirkorlik sub'ektlarini faol jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm kabi boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur.

Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish, hududning noyob tarixiy-madaniy va me'moriy obidalari bilan turistlarni keng tanishtirish, zamonaviy turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish va ko'rsatilayotgan turizm xizmatlari sifatini takomillashtirish, ichki turizmni faollashtirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda aholi daromadlari o'sishini rag'batlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi: 2020-2021-yillarda Surxondaryo viloyatida turizmni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar

dasturi ishlab chiqilgan. Unga ko'ra Surxondaryo viloyatida "Oltin uchburchak", Surxondaryo viloyatida turli ixtisoslikdagi kasalliklarga tashxis qo'yish va davolash bo'yicha zamonaviy klinikalar faoliyatini yo'lga qo'yilmoqda va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida bir qancha qarorlar qabul qilingan. Surxondaryo viloyatiga qo'shni davlatlar aholisining tashrifini sanitariya-epidemiologik talablarga qat'iy rioya etgan holda ko'paytirish, Surxondaryo viloyatida joylashgan Oks Aleksandriyasi (Kampirtepa) arxeologiya yodgorligini muhofaza qilish, infratuzilmasini rivojlantirish hamda ushbu obyektни sayyohlar tashrif buyuradigan maskanga aylantirish, Termiz tumanidagi "Qoratepa" va "Fayoztepa" hamda Sho'rchi tumanidagi "Dalvarzintepa" yodgorligini muhofaza qilish, hududini obodonlashtirish, infratuzilmasini takomillashtirish va sayyohlar tashrif buyuradigan maskanlari mavjud.

Ta'kidlash joizki, Surxondaryo viloyati turizm sohasini rivojlantirishga doir ko'plab ishlar, tadbirlar va islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, turistik dam olish maskanlari, joylashtirish vositalarining hamda havo, temiryo'l va boshqa turdagi transport xizmatlarining soni va sifati oshishini rag'batlantirishga doir hukumat qarorlari qabul qilinmoqda. Surxondaryo viloyati madaniy meros obyektlarini konservatsiya va restavratsiya qilish, obodonlashtirish, sayyohlar uchun ommaviy ko'ngilochar tadbirlar tashkil etish, mehmonxonalarda xizmat ko'rsatish sifatini yuksaltirish, zamonaviy infratuzilma obyektlari barpo etish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilishga qaramasdan bir qancha muammolar ko'zga tashlanmoqda. Jumladan, Surxondaryo viloyatida turizmni yanada rivojlantirish uchun avvalo viloyat hududidagi infratuzilma obyektlar holatining yaxshi emasligi, yo'llar, yo'l ko'rsatkichlari, reklama bannerlari, zamonaviy aloqa xizmatini yo'lga qo'yish kabi kamchiliklar mavjud. Mana shunday muammolarni bartaraf etish lozim. Bundan tashqari, kelgan turistlarni kutib olish va kuzatishdan tashqari, mehmonlarga turoperator agentliklari tomonidan sifatli xizmat ko'rsatish va yangi g'oyalar bilan mujassamlashgan turistik dasturlarni taqdim etish, turistlarni jalb etish malakasi yetishmasligini ko'rishimiz mumkin.

Tashqi va ichki turistlarni jalb etish, yangi g'oyalar va zamonaviy fikrlaydigan turoperatorlarni tayyorlash maqsadida Oliy ta'lim muassasalari turizmga oid yo'nalishidagi o'z kadrlari bilan tajriba va turistik salohiyatga ega turoperator agentliklari bilan malaka oshirish ishlarini takomillashtirish va o'qitish jarayonlarini modernizatsiyalashtirish, o'ziga xos memorandumlar tuzish, yangi g'oya va loyihalari mujassamlashgan turdasturlarni tuzishini rag'batlantirib borish hamda amaliy mashg'ulotlarni to'g'ridan-to'g'ri tashqi va ichki turistlarga taqdim etishini tashkillashtirish, ularni tadbirkorlikka jalb etgan holda kelgusidagi istiqbollarini

prognozlarini belgilab, shaxsiy turistik kompaniyalarini ochishga qiziqtirishni takomillashtirish lozim.

Bundan tashqari, vohamizning har bir hududlarida o'ziga xos iqlim sharoitlari va turistik ob'ektlariga qarab, mazkur hududlar atrofida xizmat ko'rsatishning yangicha shakl va uslublarni takomillashtirishi natijasida mahalliy aholining bandligi oshadi, daromad olish manbai ko'payadi va ijtimoiy muhiti yanada yaxshilanadi. Masalan: Boysun va Uzun tumanidagi tog'li hududlarida alpinizm (sport) turizmi, Sangardak sharsharasida ekoturizmi, Sherobod tuz koni va Xujaipok ota, Omonxona shifo maskanlarida shifo turizmi, "Imom Abu Iso Muhammad at Termiziy", "Al-Hakim at-Termiziy", "Sulton Saodat" majmualarida ziyorat turizmlariga kerakli bo'lgan anjomlar sotuvi jadallashadi, xalq hunarmandchiligi faoliyati yanada yuksaladi hamda boshqa xizmat turlari kupayadi va unutilayotgan, ota-bobalarimiz va momalarimizning hunarlari yosh avlodlarga yetkaziladi.

Surxondaryo viloyati ham o'ziga xos boy tarixi, madaniyati, hadisshunos olimlari, allomalari, madaniy meros ob'ektlari, qadimiy me'morchilik, hunarmandchilik va pazandachilik san'ati bilan ziyorat turizm yo'nalishida ham yuksak salohiyatga ega voha hisobanad2022-2026 yillarga ko'zda tutilgan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan turizm sohasini jadal rivojlantirish, yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, turistik xizmatlarini diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish, keng ko'lamda investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha chora tadbirlar amalga oshirilishi asnosida Surxondaryo viloyati xizmatlari tarkibida va yalpi hududiy mahsuloti tarkibida turizm xizmatlari ulushini keskin oshirish imkoni mavjud. Vohamizda turizmning ko'plab turlarini rivojlantirish imkonini beraydigan tog'li hududlardagi rekreatsiya resurslari, tarixiy-madaniy hamda arxeologik resurslari, jahon nomoddiy merosi ham mavjud. Viloyatda tog'li zonalar ko'pligi bois tog' va tog' oldi zonalarida turizm infratuzimlasi ob'ektlarini jadal suratlarda tashkil etish orqali xizmat ko'rsatish hajmini oshirish imkonini beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi
2. [www.president.uz/uz/lists/view/5552www.lex.uz/docs/6373735](http://www.president.uz/uz/lists/view/5552www.lex.uz/docs/6373735)
3. <https://president.uz/uz/lists/view/1371> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси



4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 30 апрелдаги ПҚ-232-сон “Ички туризм хизматларини диверсификация қилишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори

5. Руи Гонсалес де Клавихо «Буюк Темурнинг хаёти ва фаолияти» асари. 1582 йил, Севилья шаҳри

6. О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.